

# **BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT**

*2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bora-sida qator ijobil o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlash-tirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar- mart oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar- mart oylarida, birlikda)



# Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

6


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi  
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **35,2** foizga oshdi



■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




■ Dehqonchilik,  
chovachilik, ovchilik va bu  
sohalarda xizmat ko'rsatish  
■ O'rmon xo'jaligi  
■ Baliq xo'jaligi




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

7



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 4 617 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,8 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 123,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,9 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 117,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,1 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 111,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 155,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,6 %) o'sishidir.

# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



*Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,1** foizga oshdi*




## Kichik tadbirdorlik subyektlari soni



## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



## Xususiy korxonalar



# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



# Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

10

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

**650**



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

**20**



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

**12**



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



**371**

yashash bo'yicha xizmatlar



**1 921**

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 2 292 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,4 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 123,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 83,8 %), yashash bo'yicha xizmatlarning- 101,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 16,2 %) o'sishidir.


## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni (1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra 3 315 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 196 taga yoki 156,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 077 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 107 taga yoki 156,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar- mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 335 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 134 taga yoki 166,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni (2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

13



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra 317 tani tashkil etib, ulardan 310 tasi yoki 97,8 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 23 taga yoki 107,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar- mart oylarida viloyatimizda 20 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar- mart oylarida, birlikda)



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

14



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	81	97	193	284	310
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1	2	17	20	28
Sanoat	60	59	90	121	121
Qurilish	2	4	12	31	34
Savdo	8	13	37	55	70
Tashish va saqlash	2	0	3	5	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	7	14	21	22
Axborot va aloqa	0	1	0	1	1
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	1	4	6	6
Boshqa turlar	1	10	16	24	23

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)


15

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>310</b>	<b>154</b>	<b>156</b>
<b>Buxoro shahar</b>	<b>160</b>	<b>69</b>	<b>91</b>
<b>Kogon shahar</b>	<b>14</b>	<b>10</b>	<b>4</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>Olot</b>	<b>7</b>	<b>-</b>	<b>7</b>
<b>Buxoro</b>	<b>15</b>	<b>12</b>	<b>3</b>
<b>Vobkent</b>	<b>5</b>	<b>3</b>	<b>2</b>
<b>G'ijduvon</b>	<b>11</b>	<b>8</b>	<b>3</b>
<b>Kogon</b>	<b>27</b>	<b>19</b>	<b>8</b>
<b>Qorako'l</b>	<b>7</b>	<b>3</b>	<b>4</b>
<b>Qorovulbozor</b>	<b>11</b>	<b>4</b>	<b>7</b>
<b>Peshku</b>	<b>18</b>	<b>7</b>	<b>11</b>
<b>Romitan</b>	<b>12</b>	<b>5</b>	<b>7</b>
<b>Jondor</b>	<b>14</b>	<b>9</b>	<b>5</b>
<b>Shofirkon</b>	<b>9</b>	<b>5</b>	<b>4</b>

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 160 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 51,6 %), Kogon tumani 27 ta (8,7 %), Peshku tumani 18 tani (5,8 %), Kogon shahar 14 ta (4,5 %), Buxoro tumani 15 ta (4,8 %), hamda Jondor tumanlarida 14 tani (4,5 %) tashkil etadi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining  
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**  
(2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

16



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

17




2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Buxoro shahri (29,2 %), G'ijduvon(10,8 %), Romitan(8,2 %), Buxoro (7,7 %), Jondor (6,5 %), Peshku (6,2 %), Shofirkon(6,0 %), Kogon (5,2 %), Qorako'l (5,2 %), Vobkent (5,0 %), Kogon shahar (4,2 %), Olot (3,5 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil yanvar- mart oylarida, birlikda)

2021- yilning yanvar- mart oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (24,0 %), G'ijduvon(10,2 %), Buxoro (8,2 %), Romitan (9,2 %), Peshku (6,9 %), Kogon (5,2 %), Jondor (7,9 %), Vobkent (6,7 %), Shofirkon (6,5 %), Qorako'l (4,5 %), Olot (5,1 %), Qorovulbozor (2,4 %) tumanlari va Kogon shahar (3,1 %), ulushiga tegishli.



# Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

18



2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Buxoro shahri (30,0 %), G'ijduvon(10,5%), Romitan (8,6 %), Buxoro (8,0 %), Jondor (6,6 %), Peshku (6,0 %), Shofirkon (5,7 %), Kogon (5,4 %), Vobkent (5,0 %), Qorako'l (4,7 %), Kogon shahar (4,1 %), Olot (3,0 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar- mart oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirdorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Buxoro viloyati**  
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**Tel.: (65) 223-83-20**